



SOG‘LIQNI SAQLASH VA FARMATSEVTIKA SOHASIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**DORI VOSITALARI MUOMALASI
VA ISHLAB CHIQRISH
MUTAXASSISLARI**



“Dori vositalari muomalasi va ishlab chiqarish mutaxassislari” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Sog‘liqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Dori vositalari muomalasi va ishlab chiqarish mutaxassislari

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0055



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Ushbu Kasbiy standart ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

dori preparatlari – dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llanilish uchun tayyor dori vositalari;

dori vositalari – kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari, dori preparatlari;

dori vositalari saqlash ombori – dori vositalari va tibbiy buyumlarni qabul qilish, saqlash va sotish uchun mo'ljallangan maxsus xonalar, jihozlar, texnik vositalar majmuasi;

farmatsevtika xodimi – oliy yoki o'rta maxsus farmatsevtika ma'lumotiga ega bo'lgan va farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxs;

farmatsevtik maslahat – dorixona assortimentiga kiruvchi tovarlarni qo'llash yoki ulardan foydalanish tartibi to'g'risida, jumladan berish qoidalari, qo'llash usullari, dozalash rejimlari, terapevtik ta'siri, qo'llash mumkin bo'lmagan holatlari, dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan bir vaqtda qabul qilinganda o'zaro ta'siri, shuningdek ularni uy sharoitida saqlash qoidalari haqidagi farmatsevtik ma'lumotlarni taqdim etish jarayonidir;

farmatsevtik xizmat – farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan aholi va sog'liqni saqlash tashkilotlariga ko'rsatiladigan xizmat;

Good Practices – (GxP) farmatsevtika, tibbiy asbob-uskunalar va boshqa sohalarda ishlab chiqarish jarayonlarining sifatini va xavfsizligini ta'minlash uchun mo'ljallangan amaliyotlar majmuidir;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

qalbakilashtirilgan dori vositasi va tibbiy buyum – tarkibi yoki xususiyati to'g'risida yoxud ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on axborot ilova qilingan dori vositasi va tibbiy buyum;

retsept – shifokorning farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassisga dori preparatini tayyorlash va (yoki) berish hamda uning qo'llanilish usuli to'g'risidagi yozma ko'rsatmasi;

sifat – dori vositalari va tibbiy buyumlarning maqsadga binoan ta'sir ko'rsatish imkoniyatini belgilovchi xususiyatlari va xossalarning yig'indisi;

sifatsiz dori vositasi va tibbiy buyum – yaroqsiz holga kelgan va (yoki) yaroqlilik muddati o'tgan dori vositasi va tibbiy buyum

Standart Operatsion Protseduralar (SOP) – Farmatsevtika tashkilotida xodimlarga kundalik va takrorlanuvchi operatsiyalarni bosqichma-bosqich bajarishda yo'naltiruvchi yozma ko'rsatmalar majmuasi;

texnologik xarita – bu dori vositalarini ishlab chiqarishda har bir jarayon qanday tartibda va qanday shartlarda bajarilishi kerakligini ko'rsatib beradigan rasmiy texnologik hujjat;

tibbiy buyumlar – kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan buyumlar;

Zarur dorixona amaliyoti (GPP) – farmatsevtika xodimlari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan farmatsevtika xizmatlarining tegishli sifatini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan va dorixonalarning kundalik faoliyatining barcha masalalari va jihatlarini qamrab olishi kerak bo'lgan qoida.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 4-yanvar “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-399-son Qonuni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr “O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust 275-son “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-aprel ““Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi 2016-yil 4-yanvar O'RQ-399-son O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 185-son Qarori;

“Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti» O'zDst 2766:2018 O'zbekiston Respublikasining Davlat standarti;

“Zarur dorixona amaliyoti GPP” – O'zMSt-140:2024 Milliy standarti;

“Yaxshi distribyutorlik amaliyoti GDP” – O'zDst 2764:2018 O'zbekiston Respublikasining Davlat standarti.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

GMP – yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti;

GPP – Zarur dorixona amaliyoti;

GDP – Yaxshi distribyutorlik amaliyoti;

GxP – Farmatsevtika va turdosh sohalarda sifatni ta'minlash uchun mo'ljallangan zarur amaliyotlar majmui;

SOP – Standart operatsion protseduralar;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Dori vositalari muomalasi va ishlab chiqarish mutaxassislari	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi:	Dori vositalarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini olib borish, dori shakllarini retsept asosida tayyorlash hamda aholi va davolash muassasalarini sifatli farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlash orqali malakali farmatsevtik yordam ko'rsatish.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	<p>C seksiya ishlab chiqaradigan sanoat:</p> <p>21 Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish;</p> <p>21.1 Asosiy farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish;</p> <p>21.10 Asosiy farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish;</p> <p>21.10.0 Asosiy farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish;</p> <p>21.2 Farmatsevtika preparatlarini ishlab chiqarish;</p> <p>21.20 Farmatsevtika preparatlarini ishlab chiqarish;</p> <p>21.20.0 Farmatsevtika preparatlarini ishlab chiqarish.</p> <p>G seksiya ulgurji va chakana savdo:</p> <p>47 Avtomobillar va mototsikllardan tashqari ulgurji savdo;</p> <p>47.7 Avtomobillar va mototsikllardan tashqari boshqa tovarlar chakana savdosi;</p> <p>47.73 Farmatsevtika tovarlari chakana savdosi;</p> <p>47.73.0 Farmatsevtika tovarlari chakana savdosi.</p>	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Mazkur standart dori vositalarini sanoat sharoitida ishlab chiqarish, texnologik jarayonlarni amalga oshirish, texnologik uskunalarni boshqarish hamda ishlab chiqarish jarayonlarida sifat va xavfsizlik talablariga rioya etilishini ta'minlash bilan bog'liq asosiy talablarni belgilaydi. Shuningdek, mazkur standart dorixona sharoitida dori shakllarini retsept asosida tayyorlash, dori vositalari va tibbiy buyumlarni saqlash va berish jarayonlarida ishtirok etish, farmatsevt rahbarligi ostida farmatsevtik yordam ko'rsatishga ko'maklashish hamda dori vositalari muomalasini tartibga solish bilan bog'liq asosiy talablarni belgilaydi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		32130001 Dori preparatlarini ishlab chiqarish operatori	5
		32130004 Farmatsevt-retseptar	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	32130001 Dori preparatlarini ishlab chiqarish operatori	A1.5	Xomashyo va yordamchi moddalarni qabul qilish va tayyorlash	A1.01.5	Xomashyoni qabul qilish va tekshirish
				A1.02.5	Xomashyoni tarozida tortish va texnologiya talablariga muvofiq tayyorlash
		A2.5	Texnologik uskunalarni ishga tayyorlash	A2.01.5	Uskunalarni yig'ish va sanitar ishlov berish
				A2.02.5	Uskunalarni ishga tushirishga tayyorlash
		A3.5	Texnologik jarayonlarni amalga oshirish	A3.01.5	Aralashtirish, gomogenizatsiya, granulyatsiya, presslash, qoplash, eritma tayyorlash kabi jarayonlarni texnologik kartaga muvofiq bajarish
		A4.5	Jarayon parametrlarini nazorat qilish	A4.01.5	Texnologik ko'rsatkichlarni kuzatish
				A4.02.5	Texnologik ko'rsatkichlarni qayd etish
		A5.5	Yarim tayyor va tayyor mahsulotni hujjatlashtirish	A5.01.5	Partiya jurnallarini yuritish va raqamlash
A5.02.5	Mahsulotni belgilash, markirovka qilish va ichki nazorat hujjatlarini to'ldirish				
2.	32130004 Farmatsevt-retseptar	B1.5	Dori shakllarini dorixona sharoitida retsept asosida tayyorlash	B1.01.5	Assistentlik xonasi va ish joyini sanitariya va aseptika qoidalariga muvofiq tayyorlash
				B1.02.5	Qattiq, suyuq va yumshoq dori shakllarini retsept asosida tayyorlash
				B1.03.5	Steril dori shakllari va bolalar dori shakllarini aseptik blokda tayyorlash
		B2.5	Tayyor dori vositalarini qadoqlash, markirovkalash va sifatini nazorat qilish	B2.01.5	Tayyor dori vositasini fizik-kimyoviy xossasiga mos idishga qadoqlash va germetikligini ta'minlash
				B2.02.5	Dori shakliga mos signal yorliqlar bilan markirovkalash va "Yozma nazorat pasporti"ni rasmiylashtirish
				B2.03.5	Tayyor mahsulotni organoleptik usulda birlamchi nazoratdan o'tkazish
		B3.5	Farmatsevtik substansiyalar va texnologik jihozlar bilan ishlash	B3.01.5	Tarozi, o'lchov asboblari va sterilizatsiya uskunalarni kalibrlash va ishchi holatda saqlash

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
				B3.02.5	Dori moddalari va yordamchi materiallarni fizik-kimyoviy xossalari ko'ra to'g'ri saqlash

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Dori preparatlarini ishlab chiqarish operatori	
Mashg'ulot nomining kodi:	32130	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Ishlab chiqarish jarayonida shaxsiy gigiyena va sanitariya qoidalariga (GMP) qat'iy rioya qilish, texnologik yo'riqnomalarni (SOP) so'zsiz va aniq bajarish intizomi, raqamlar va detallarga nisbatan o'ta kuchli e'tiborlilik, monoton ish jarayonida diqqatni jamlay olish, texnik uskunalarni boshqarishda ehtiyotkorlik, yuzaga kelgan nuqson yoki xatoliklarni yashirmaslik, jamoaviy ishda o'zaro yordam va mas'uliyatni his qilish, stress va avariya holatlarida sovuqqonlik bilan tezkor qaror qabul qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Farmatsevtika sanoati texnolog muhandisi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.5 - Xomashyo va yordamchi moddalarni qabul qilish va tayyorlash	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Kirib kelgan xomashyo va yordamchi moddalarni hujjatlar asosida qabul qilish	
	2. Tashqi ko'rinishi, ifloslanishlar, mo'ljallangan hujjatlarga muvofiqligini baholash	
	3. Xomashyoni belgilangan talablarga muvofiq sanab chiqish, o'lchash	
	4. Qabul qilingan xomashyoni maxsus idishlarga joylash va markirovka qilish	
	5. Xomashyo qabul qilish jurnali va elektron tizimlarda tegishli qaydlarni kiritish	
6. Nomuvofiqlik aniqlanganda texnolog yoki rahbarga darhol axborot berish		
A1.01.5 - Xomashyoni qabul qilish va tekshirish		

		<p>Ko'nikmalar:</p> <p>Xomashyo va yordamchi moddalarni aniqlash va vizual baholash</p> <p>Hujjatlar bilan solishtirish va nomuvofiqlikni aniqlash</p> <p>Qabul qilish va ro'yxatga olish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish</p> <p>Jurnal va elektron sistema bilan ishlash</p> <p>GMP talablariga muvofiq qabul qilish jarayonini bajarish</p> <p>Xomashyo va yordamchi moddalarni saqlash sharoitlarining qabul paytidagi muvofiqligini baholash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Xomashyo va yordamchi moddalarning asosiy turlari va xususiyatlari</p> <p>Xomashyoni qabul qilish va saqlash bo'yicha me'yoriy talablar</p> <p>GMP va sanitariya-gigiyena talablari</p> <p>Nomuvofiqlik holatlarini aniqlash va xabar berish tartibi</p> <p>Mahsulot partiyalarini ro'yxatga olish va hujjatlashtirish tartibi</p> <p>Xomashyo va yordamchi moddalarning qadoqlanishi va markirovkasi bo'yicha talablar</p>
	A1.02.5 - Xomashyoni tarozida tortish va texnologiya talablariga muvofiq tayyorlash	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Xomashyo va yordamchi moddalarni texnologik kartada ko'rsatilgan miqdor asosida aniq tortish va hisob-kitoblarni to'g'ri bajarish</p> <p>2. Xomashyoni tayyorlashdan oldin ish joyi, asbob-uskunalar va idishlarning sanitariya holatini tekshirish hamda ularni belgilangan tartibda tayyorlash.</p> <p>3. Texnologik kartaga muvofiq tayyorlov amallarini bajarish</p> <p>4. Tayyorlangan xomashyoni belgilangan idishlarga joylashtirish va texnologik talablarga muvofiq markirovka qilish</p> <p>5. Tayyorlangan xomashyoni ishlab chiqarishning keyingi bosqichiga topshirish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Tortish asboblari bilan aniq va to'g'ri ishlash</p> <p>Hisob-kitoblarni amalga oshirish</p> <p>Xomashyoni xavfsiz va sanitar talablarga muvofiq tayyorlash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Texnologik kartada belgilangan miqdorlar va proporsiya hisoblash usullari</p> <p>Xavfsizlik texnikasi, ximik moddalar bilan ishlash qoidalari</p>

	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Xomashyoni tarozida aniq tortish, hisob-kitoblarni to'g'ri amalga oshirish va texnologik talablarga muvofiq tayyorlashda mustaqillik</p> <p>2. Xomashyoni ishlab chiqarishga tayyor holatga keltirishda belgilangan yo'riqnomalar va sanitariya talablari doirasida mustaqillik</p> <p>3. Kirib kelgan xomashyoni hujjatlar asosida to'g'ri qabul qilish va vizual tekshirish sifati uchun mas'uliyat</p> <p>4. Xomashyodagi nomuvofiqlik, hujjatlar o'rtasidagi farq aniqlansa, bu haqda texnolog yoki rahbarga o'z vaqtida axborot berish bo'yicha mas'uliyat</p> <p>5. Markirovka qilish, partiya raqamlarini to'g'ri yozish va qabul qilish jurnallarini to'liq yuritish uchun javobgarlik</p>
A2.5-Texnologik uskunalarni ishga tayyorlash	A2.01.5- Uskunalarni yig'ish va sanitar ishlov berish	Mehnat harakatlari:
		1. Texnologik uskunalarni ishlash yo'riqnomalariga asosan to'g'ri yig'ish va montaj qilish
		2. Uskunaning ichki va tashqi qismlarini yuvish, dezinfeksiya qilish va sanitar talablarga muvofiq ishlov berish
		3. Uskunaning uzellari, filtrlari, armaturalari va ish maydonini ko'zdan kechirish, mexanik nuqsonlarni aniqlash
		Ko'nikmalar:
		Texnologik uskunalarni turlari va ularning qismlarini to'g'ri yig'ish va sozlash
		Dezinfeksiya va sanitar ishlov berish vositalari va usullarini to'g'ri qo'llash
		Mexanik nuqsonlarni vizual aniqlash va xavfsiz ishlashni ta'minlash
		Bilimlar:
		Uskunalarning asosiy turlari, ishlash prinsiplari va konstruksiyasi
		Sanitariya-gigiyena talablari, yuvish va dezinfeksiya qoidalari
		Uskunalar bilan ishlashdagi texnika xavfsizligi va elektr xavfsizligi talablari
		GMP va sanitar normalarning uskuna tayyorligiga oid talablari
A2.02.5- Uskunalarni ishga tushirishga tayyorlash	Mehnat harakatlari:	
	1. Elektr va mexanik tutashuvlarni tekshirish, ishga tushirishdan oldin xavfsizlik holatini baholash	
	2. Uskunaning boshlang'ich parametrlarini sozlash va ishga tayyor holatga keltirish	
	3. Texnik og'ishlar, shubhali tovushlar yoki titrashlar aniqlansa, bu haqda ustalar yoki texnologga xabar berish	

		Ko'nikmalar:
		Ishga tushirish parametrlarini belgilash va test rejimida ishni baholash
		Uskunaning ishga tayyorligini texnik jihatdan baholash
		Jurnallar, chek-listlar va texnik tayyorlik hujjatlarini to'g'ri to'ldirish
		Bilimlar:
		Texnologik jarayonga xos boshlang'ich parametrlar
		Uskunalarda test rejimida ishga tushirish tartibi va og'ishlarni baholash mezonlari
		Uskunalarni ishga tushirishda xavfsizlik talablari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Uskunaning ishga tayyor holatga keltirilishi va parametrlarning to'g'ri sozlanishi uchun mas'uliyat
		2. Talab etilgan parametrlardan chetga chiqmaslik, standartdan tashqari vaziyatlarda mutaxassisga murojaat qilish bo'yicha mas'uliyat
3. Uskunalarni sanitar talablarga muvofiq holatga keltirish uchun mas'uliyat		
4. Uskunalarni yig'ish, yuvish va dezinfeksiya qilish jarayonlarini belgilangan yo'riqnomalar asosida amalga oshirish bo'yicha mustaqillik		
A3.5 - Texnologik jarayonlarni amalga oshirish	A3.01.5 - Aralashtirish, gomogenizatsiya, granulyatsiya, presslash, qoplash, eritma tayyorlash kabi jarayonlarni texnologik kartaga muvofiq bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Texnologik karta va standart operatsion protseduralar (SOP) asosida belgilangan operatsiyalarni tizimli ravishda amalga oshirish
		2. Aralashtirish, gomogenizatsiya, eritma tayyorlash, granulyatsiya, quritish, presslash, qoplash va boshqa jarayonlarni uskunalarda to'g'ri yo'lga qo'yish
		3. Jarayonning asosiy parametrlarini kuzatish va qayd etib borish
		4. Jarayon vaqtida ortiqcha issiqlik, quyuqlashish, noto'g'ri aralashish, agregatlanish yoki boshqa og'ishlar aniqlanganda texnologga xabar berish
		5. Yarim tayyor mahsulotni qabul qilish, tekshirish va keyingi bosqichga topshirish
		6. Uskunalarning ish jarayonidagi holatini kuzatish, kerak bo'lganda parametrlarni sozlash
		7. Jarayon tugagach, uskunani to'xtatish va bo'shashtirish amaliyotlarini bajarish
		Ko'nikmalar:
		Texnologik kartalar bilan aniq va qat'iy tarzda ishlash
		Turli texnologik operatsiyalarni amalga oshirishda uskunalarni boshqarish
		Jarayon parametrlarini kuzatish, qayd etish va og'ishlarni baholash
	Yarim tayyor mahsulotni vizual, organoleptik va texnik jihatdan baholash	

		Texnologik jarayonlarda xavfsiz ishlash usullaridan foydalanish
		Jurnallar, parametrlar varaqalari va partiya hujjatlarini to'g'ri to'ldirish
		Bilimlar:
		Farmatsevtik texnologiyaning asosiy bosqichlari va ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari
		Aralashtirish, gomogenizatsiya, granulyatsiya, presslash, qoplash jarayonlarining mexanizmlari va parametrlari
		Jarayon parametrlarining mahsulot sifatiga ta'siri
		GMP prinsiplari va texnologik jarayonlarni hujjatlashtirish talablari
		Xavfsizlik texnikasi, sanitar qoidalar, texnologik xavflarni boshqarish
		Uskunalarning ishlash tartibi
		Mas'uliyat va mustaqillik:
2. Jarayon parametrlarini mustaqil ravishda kuzatib borish, aniq og'ishlar yuzaga kelganda ularni to'g'ri baholash va texnologga o'z vaqtida ma'lum qilish bo'yicha mas'uliyat		
3. Yarim tayyor mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni nazorat qilish va uning holati haqida aniq hisobot berish bo'yicha mas'uliyat		
4. Texnologik jarayon hujjatlarini to'g'ri va ishonchli to'ldirish uchun javobgarlik		
5. Odatiy texnologik operatsiyalarni amalga oshirishda mustaqillik		
A4.5 - Jarayon parametrlarini nazorat qilish	A4.01.5- Texnologik ko'rsatkichlarni kuzatish	Mehnat harakatlari:
		1. Texnologik jarayonlar uchun belgilangan harorat, bosim, vaqt, aylanish tezligi va boshqa parametrlarni monitoring qilish
		2. Uskuna panellari, datchiklar, manometrlar, termometrlar orqali ko'rsatkichlarni doimiy ravishda kuzatib borish
		3. Parametrlar belgilangan normadan chetga chiqsa, ushbu holatni aniqlash
		4. Parametrlarning o'zgarishi sababini vizual ravishda baholash
		Ko'nikmalar:
		Texnologik parametrlarni o'lchash uskunalari bilan ishlash
		Parametrlarni o'qish, solishtirish va belgilangan normalarga muvofiqligini aniq baholash
Normadan og'ish holatlarini tezda aniqlash		

		<p>Bilimlar:</p> <p>Asosiy texnologik parametrlar va ularning jarayon sifatiga ta'siri</p> <p>Kontrol parametrlari belgilab qo'yilgan texnologik kartalar va SOP talablari</p> <p>Parametr uskunalarning ishlash prinsipi va to'g'ri qo'llanilishi</p> <p>Normadan og'ish sabablari va ularning texnologik jarayonga ta'siri</p>
	A4.02.5- Texnologik ko'rsatkichlarni qayd etish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Belgilangan intervallarda texnologik parametrlarni jurnallarga yoki elektron tizimga aniq va o'z vaqtida qayd etish</p> <p>2. Parametrlar belgilangan normadan chetga chiqsa, texnolog yoki mas'ul mutaxassisga darhol xabar berish</p> <p>3. Texnologik jarayonning uzluksizligi va barqarorligini ta'minlash uchun zarur bo'lganda parametrlarni belgilab berilgan doirada sozlash</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Parametr jurnallari, chek-listlar va qaydnomalarni aniq va ishonchli to'ldirish</p> <p>Normadan og'ish holatlarida tezkor reaksiya qilish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>GMP talablari</p> <p>Favqulodda holatlarda harakat qilish qoidalari va xavfsizlik me'yorlari</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Texnologik parametrlarni jurnallarda ishonchli va o'z vaqtida qayd etish uchun mas'uliyat</p> <p>2. Belgilangan vakolatlar doirasida parametrlarni sozlash yoki korektirovka qilish ishlarini amalga oshirishda mustaqillik</p> <p>3. Hujjatlarni noto'g'ri to'ldirish, parametrlarni vaqtida qayd etmaslik yoki og'ishlarni yashirish oqibatlarini uchun shaxsiy mas'uliyat</p> <p>4. Texnologik parametrlarni o'z vaqtida va aniq monitoring qilish bo'yicha mas'uliyat</p> <p>5. Parametrlarning belgilangan normadan chetga chiqqan holatlarini mustaqil aniqlash bo'yicha mustaqillik</p> <p>6. Parametr og'ishlari mavjud bo'lganda texnologik jarayonni xavfsiz holatda ushlab turish uchun zarur ehtiyot choralarini ko'rishda mustaqillik</p>
A5.5- Yarim tayyor va tayyor mahsulotni hujjatlashtirish	A5.01.5- Partiya jurnallarini yuritish va raqamlash	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Partiya raqamlarini, qabul qilingan va tayyorlangan yarim tayyor mahsulot haqidagi ma'lumotlarni belgilangan jurnallar yoki elektron formada to'g'ri va o'z vaqtida kiritish</p>

		<p>2. Nomuvofiqliklar, og'ishlar yoki shubhali holatlar qayd etilganda jurnalda tegishli belgi qo'yish</p> <p>3. To'ldirilgan hujjatlarni mas'ul shaxslarga topshirish va arxivlash uchun tayyor holatga keltirish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Jurnallar, partiya varaqalari va ichki nazorat hujjatlari bilan ishlash</p> <p>Mahsulot va yarim tayyor mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq kiritish</p> <p>Elektron tizimlarda partiya ma'lumotlarini kiritish va tekshirish</p> <p>Ish jarayonida yuzaga kelgan nomuvofiqliklarni to'g'ri qayd etish va rasmiylashtirish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Partiya yuritish tartibi va identifikatsiya qoidalari</p> <p>Texnologik jarayonlarning qayd etilishi talablari</p> <p>Nomuvofiqliklar va og'ishlar bo'yicha hujjatlashtirish tartibi</p>
	A5.02.5- Mahsulotni belgilash, markirovka qilish va ichki nazorat hujjatlarini to'ldirish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Mahsulot, yarim tayyor mahsulot va xomashyo idishlarini to'g'ri belgilash, markirovka qilish va raqamlash</p> <p>2. Mahsulotga tegishli ichki nazorat hujjatlarini standart talablarga muvofiq to'ldirish</p> <p>3. Nomuvofiqliklar, og'ishlar yoki shubhali holatlar aniqlanganda mas'ul mutaxassisga xabar berish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Markirovka qilish, tartib raqam berish va identifikatsiya qoidalariga amal qilish</p> <p>Ichki nazorat hujjatlarini to'g'ri to'ldirish</p> <p>Nomuvofiqliklarni aniqlash va rasmiylashtirish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Markirovka va raqamlash bo'yicha me'yoriy talablar</p> <p>Ichki nazorat hujjatlarining turlari va ularning mazmuni</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Mahsulot va yarim tayyor mahsulotni to'g'ri belgilash, markirovka qilish va identifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha mustaqillik</p> <p>2. Ichki nazorat hujjatlarini to'ldirish, imzolash va arxivlash jarayonlarini belgilangan standartlar asosida amalga oshirishda mustaqillik</p> <p>3. Partiya jurnallarini aniq, o'z vaqtida va xato qilmasdan to'ldirish uchun mas'uliyat</p> <p>4. Hujjatlardagi har qanday nomuvofiqlik yoki og'ish aniqlanganda bu haqda mas'ul mutaxassisga darhol xabar berish bo'yicha mas'uliyat</p>

Texnik va/yoki texnologik talab:	Taroziar, termometr va harorat datchiklari, manometrlar, filtratsiya asboblari, pH-metr, axborot tizimlari va kompyuter uskunalari, laboratoriya yordamchi asboblari
---	--

Kasbning nomi:	Farmatsevt-retseptar	
Mashg'ulot nomining kodi:	32130	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Farmatsevt-retseptar dorixona faoliyatida yuqori darajadagi kasbiy mas'uliyat, ehtiyotkorlik va bemor xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan fikrlashga ega bo'lishi lozim. U shaxsiy gigiyena va sanitariya qoidalariga, shuningdek GMP va GPP talablariga qat'iy rioya qilishi, standart operatsion protseduralar (SOP) hamda amaldagi me'yoriy hujjatlarni so'zsiz va aniq bajarishi talab etiladi. Retseptlar, dozalash rejimlari, dori shakllari va miqdorlar bilan ishlashda yuqori aniqlik, raqamlar va detallarga nisbatan kuchli e'tiborlilik, bemorlar bilan muloqotda xushmuomalalik va kasbiy etika qoidalariga amal qilish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Farmatsevt (provizor)
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.5- Dori shakllarini dorixona sharoitida retsept asosida tayyorlash	B1.01.5- Assistentlik xonasi va ish joyini sanitariya va aseptika qoidalariga muvofiq tayyorlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ishni boshlashdan oldin shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish va maxsus kiyim kiyish
		2. Qo'llarni yo'riqnoma asosida yuvish va antiseptik bilan ishlash
		3. Assistentlik stoli yuzasini va tarozilarni dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan artish
		4. Ish qurollari va idishlarning tozaligi hamda sterilligini vizual tekshirish
		5. Xonadagi harorat va namlik ko'rsatkichlarini tekshirish va jurnalga qayd etish
		6. Ishlatiladigan tozalangan suv va inyeksiya uchun suvning sifatini tekshirish
		Ko'nikmalar:

		Maxsus kiyimni to'g'ri kiyish va shaxsiy gigiyenaga rioya qilish
		Qo'llarni gigiyenik va jarrohlik usulida zararsizlantirish
Dezinfeksiyalovchi eritmalarni kerakli konsentratsiyada tayyorlash		
Ish joyini toza zona talablariga muvofiq tashkil qilish		
Gigrometr va termometr ko'rsatkichlarini to'g'ri aniqlash		
Distillangan suv sifatini organoleptik baholash		
Bilimlar:		
Dorixona muassasalarida sanitariya tartibi va shaxsiy gigiyena qoidalari		
Dezinfeksiya vositalarini tayyorlash tartibi va ularning yaroqlilik muddatlari		
Aseptika va antiseptika qoidalari hamda talablari		
Dorixona idishlarini yuvish va sterilizatsiya qilish rejimlari		
Dorixona xonalari uchun belgilangan mikroiklim me'yorlari		
Tozalangan suvni olish va saqlash muddatlari bo'yicha talablar		
B1.02.5- Qattiq, suyuq va yumshoq dori shakllarini retsept asosida tayyorlash	Mehnat harakatlari:	
	1. Retsept tarkibidagi moddalarning o'zaro nomutanosibligini aniqlash	
	2. Zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalarning dozalarini tekshirish	
	3. Qattiq dori moddalarini hovonchada maydalash va aralashtirish	
	4. Kukunlarni kapsula yoki qog'ozlarga aniq dozalarda bo'lib chiqish	
	5. Quruq moddalarni erituvchida eritish va eritmani suzish	
	6. Yumshoq dori shakllari uchun asoslarni eritish va aralashtirish	
	7. Uchuvchan moddalarni dori tayyorlashning so'nggi bosqichida qo'shish	
	Ko'nikmalar:	
	Retseptni farmatsevtik ekspertizadan o'tkazish	
	Dori moddalarining dozalarini va nisbatlarini hisoblash	
	Qo'l tarozilari va elektron tarozilarda aniq o'lchash	
	Dori moddalarini hovonchada maydalash va aralashtirish texnikasi	
	Suyuqliklarni byuretkka tizimi va menzurkalar yordamida o'lchash	
	Eritmalarni filtrlash va suzish	
	Surtma va linimentlarni gomogen holatga kelguncha aralashtirish	
	Bilimlar:	

		Dorixona texnologiyasi asoslari va dori tayyorlash qoidalari
		Dori moddalarining fizik va kimyoviy xossalari
		Farmatsevtik nomutanosiblik turlari va ularni bartaraf etish usullari
		Zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalarning yuqori dozalari
		Dori moddalarini maydalash va aralashtirish ketma-ketligi
		Suyuq dori shakllarini tayyorlashda erituvchilarning xususiyatlari
		Yumshoq dori shakllarini tayyorlash texnologiyasi
	B1.03.5- Steril dori shakllari va bolalar dori shakllarini aseptik blokda tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Ishni faqat aseptik blokda yoki laminar shkafda amalga oshirish
		2. Eritmani tayyorlash va ko'p qavatli filtrlardan o'tkazish
		3. Tayyor eritmani flakonlarga quyish va sterilizatsiya qilish
		4. Bolalar uchun dori dozalarini yoshi va vazniga qarab hisoblash
		5. Tayyorlangan eritmani mexanik aralashmalarga tekshirish
		6. Ishlatiladigan idish va tiqinlarning sterilligini nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Aseptik sharoitda va laminar oqim ostida ishlash
		Sterilizatsiya uskunalari bilan ishlash va rejimlarni sozlash
		Membranali filtrlash uskunalaridan foydalanish
		Bolalar uchun dori dozalarini aniq qayta hisoblash
		Eritmalarni mexanik aralashmalardan vizual nazorat qilish
		Flakonlarni germetik yopish va qopqoqlarni mahkamlash
		Bilimlar:
		Sterilizatsiya usullari va ularning rejimlari
		Aseptik blokda ishlash va havo almashinuvini ta'minlash qoidalari
		Inyeksiya uchun eritmalarga qo'yiladigan davlat talablari
		Pirogen moddalar va ulardan tozalash usullari
		Izotonik eritmalar tayyorlash uchun hisob-kitoblar
	Pediatrriyada qo'llaniladigan dorilarning o'ziga xos xususiyatlari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Retsept tarkibidagi dori moddalarining o'zaro nomutanosibligini o'z vaqtida aniqlash va kimyoviy reaksiyalar natijasida hosil bo'ladigan zaharli birikmalarning oldini olish bo'yicha mas'uliyat

		<p>2. Zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish hamda dozalarni o'ta aniqlikda o'lchash yuzasidan shaxsiy mas'uliyat</p> <p>3. Assistentlik xonasida aseptika va antiseptika holatini saqlash hamda tayyorlangan dori vositalarining mikrobiologik tozaligini ta'minlash bo'yicha mas'uliyat</p> <p>4. Bolalar va chaqaloqlar uchun tayyorlanadigan dori vositalarining dozalarini bemorning yoshi va vazniga qarab to'g'ri hisoblash bo'yicha mas'uliyat</p> <p>5. Steril dori shakllarini tayyorlashda sterilizatsiya rejimi va vaqtiga rioya etilishi hamda pirogen moddalar yo'qligini kafolatlash bo'yicha mas'uliyat</p> <p>6. Retseptda ko'rsatilgan dori moddalarining fizik va kimyoviy xossalardan kelib chiqib eng maqbul tayyorlash texnologiyasini tanlash bo'yicha mustaqillik</p> <p>7. Noto'g'ri yozilgan yoki tarkibida nomutanosiblik bo'lgan retseptlarni qabul qilishni rad etish va ularni tuzatish uchun shifokorga qaytarish bo'yicha mustaqillik</p> <p>8. Dori tayyorlash jarayonida sifatni ta'minlash maqsadida kerakli yordamchi moddalar va erituvchilarni mustaqil tanlash bo'yicha mustaqillik</p> <p>9. Ish jarayonida aniqlangan sifatsiz xomashyo yoki nosoz o'lchov asboblardan foydalanishni darhol to'xtatish bo'yicha mustaqillik</p>
<p>B2.5- Tayyor dori vositalarini qadoqlash, markirovkalash va sifatini nazorat qilish</p>	<p>B2.01.5- Tayyor dori vositasini fizik-kimyoviy xossasiga mos idishga qadoqlash va germetikligini ta'minlash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Tayyor dori shaklining fizik xossasiga mos keladigan qadoq idishini tanlash</p> <p>2. Yorug'lik ta'sirida buziladigan moddalar uchun to'q rangli shisha idishlardan foydalanish</p> <p>3. Suyuq dori shakllarini flakonlarga quyish va tiqinlarini mahkamlash</p> <p>4. Surtma va linimentlarni bankalarga joylashda havo pufakchalari qolmasligini ta'minlash</p> <p>5. Kukunlarni kapsulalarga yoki mumli qog'ozlarga dozalarga bo'lib qadoqlash</p> <p>6. Idishlarning germetik yopilganligini kapilyar oqish usulida tekshirish</p> <p>7. Uchuvchan moddalar saqlovchi dorilarni parafinli qog'oz yoki pergament bilan qo'shimcha berkitish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Dori vositasining hajmi va massasiga mos idishni to'g'ri tanlash</p> <p>Flakonlarni va bankalarni germetik yopish</p> <p>Surtmalarni bankaga shpatel yordamida zich joylashtirish</p> <p>Kukunlarni dozalarga aniq bo'lish va qog'oz kapsulalarni buklash</p>

		Suyuqliklarni to'kilmasdan idishlarga quyish
		Qopqoqlar va tiqinlarning mustahkamligini tekshirish
Termolabil dorilar uchun maxsus termokonteyner yoki izotermik o'ramlardan foydalanish		
Bilimlar:		
Dori shakllari uchun ishlatiladigan birlamchi qadoq materiallarining turlari		
Yorug'lik va namlikka sezgir dori moddalarini qadoqlash talablari		
Polimer va shisha idishlarning kimyoviy turg'unligi		
Germetiklikni ta'minlash usullari va tekshirish tartibi		
Dori vositalarini dozalarga bo'lib qadoqlash qoidalari		
Qadoq materiallarining dori vositasi sifati va barqarorligiga ta'siri		
Tibbiyot shishasi va polimer idishlarga qo'yiladigan davlat standartlari		
B2.02.5- Dori shakliga mos signal yorliqlar bilan markirovkalash va "Yozma nazorat pasporti"ni rasmiylashtirish	Mehnat harakatlari:	
	1. Dori shakli va qo'llash usuliga qarab tegishli signal rangli yorliqlarni tanlash	
	2. Yorliqda dori vositasining nomi va tarkibini to'liq yozish	
	3. Bemorning ismi va dori qo'llash usulini aniq ko'rsatish	
	4. Tayyorlangan sana va yaroqlilik muddatini belgilash	
	5. Ogohlantiruvchi qo'shimcha yorliqlarni yopishtirish	
	6. Tayyorlangan dori bo'yicha Yozma nazorat pasportini to'ldirish	
	7. Retsept raqamini va tayyorlagan shaxs imzosini yorliqqa qayd etish	
	Ko'nikmalar:	
	Signal rangli yorliqlarni dori shakliga qarab to'g'ri ajratish	
	Yorliqlarni husnixat bilan va tushunarli to'ldirish	
	Yozma nazorat pasportida retsept tarkibini lotin tilida yozish	
	Yaroqlilik muddatini aniq hisoblash va belgilash	
	Ogohlantiruvchi yozuvlarni dori xususiyatiga mos tanlash	
	Yorliqlarni idishga tekis va mustahkam yopishtirish	
	Hujjatlardagi ma'lumotlarning retseptga mosligini solishtirish	
	Bilimlar:	
	Dorixona sharoitida tayyorlangan dorilarni bezash qoidalari	
	Signal rangli yorliqlarning turlari va ularning ahamiyati	
	Yorliqlarda ko'rsatilishi shart bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati	
Ogohlantiruvchi yozuvlarning turlari va qo'llash holatlari		

		Yozma nazorat pasportini yuritish tartibi va saqlash muddatlari
		Dori vositalarining yaroqlilik muddatlarini belgilash me'yorlari
		Lotin tilidagi tibbiy qisqartmalar va ularning ma'nolari
	B2.03.5- Tayyor mahsulotni organoleptik usulda birlamchi nazoratdan o'tkazish	Mehnat harakatlari:
		1. Tayyor dori vositasining rangini retsept tarkibiga mosligini tekshirish
		2. Dori vositasining hidini va tiniqligini vizual baholash
		3. Suyuq dori shakllarida mexanik aralashmalar yo'qligini tekshirish
		4. Kukunlarning bir xil maydalanganligini va sepiluvchanligini nazorat qilish
		5. Surtmalarning bir xilligini va qattiq zarrachalar yo'qligini aniqlash
		6. Tayyor dori vositasining umumiy og'irligini yoki hajmini tekshirish
		7. Aniqlangan nomuvofiqliklar bo'yicha provizor-analitik yoki texnologga xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Dori vositalarining rangini va hidini to'g'ri identifikatsiya qilish
		Eritmalarni yorug'lik fonida mexanik aralashmalarga tekshirish
		Kukun va surtmalarning bir xilligini vizual aniqlash
		Tayyor mahsulotning og'irligini va hajmini o'lchash
		Sifat ko'rsatkichlaridagi og'ishlarni aniqlash va baholash
		Birlamchi nazorat natijalarini hujjatlashtirish
		Sifatsiz mahsulotni yaroqli mahsulotdan ajratish
		Bilimlar:
		Dori shakllarining sifatini baholashning organoleptik ko'rsatkichlari
		Turli dori moddalarining o'ziga xos rangi va hidi
		Suyuq dori shakllarining tiniqligi va mexanik tozalik me'yorlari
		Kukunlar va surtmalarning gomogenlik darajasini aniqlash usullari
		Dori vositalarining massasi va hajmidagi yo'l qo'yiladigan og'ishlar
		Sifatsiz dori vositalarini aniqlash va bartaraf etish tartibi
	Farmatsevtik tahlil asoslari va birlamchi nazorat usullari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tayyor dori shakllarining germetikligini ta'minlash va saqlash jarayonida ularning barqarorligini kafolatlash bo'yicha mas'uliyat
		2. Dori vositalarini noto'g'ri markirovkalash yoki signal yorliqlarini adashtirib qo'yish oqibatida bemor sog'lig'iga yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar uchun shaxsiy mas'uliyat

		<p>3. Tayyorlangan dori vositalarining yaroqlilik muddatlarini to'g'ri belgilash va bu haqda bemorni ogohlantiruvchi yozuvlar bilan ta'minlash bo'yicha mas'uliyat</p> <p>4. Birlamchi nazorat o'tkazilmagan yoki tarkibida mexanik aralashmalar mavjud bo'lgan dori vositalarini sifat nazoratchisiga yoki bemorga taqdim etish oqibatlari yuzasidan mas'uliyat</p> <p>5. Yozma nazorat pasportini retseptga to'liq mos ravishda to'ldirish va hujjatlashtirish qoidalari rioya etilishi bo'yicha mas'uliyat</p> <p>6. Dori vositasining fizik va kimyoviy xossalardan kelib chiqib eng maqbul qadoq idishi va tiqin turini mustaqil tanlash bo'yicha mustaqillik</p> <p>7. Dori vositasining xavfsiz qo'llanilishini ta'minlash maqsadida qo'shimcha ogohlantiruvchi yozuvlarni belgilash bo'yicha mustaqillik</p> <p>8. Organoleptik tekshiruv natijasida sifatsiz deb topilgan tayyor dori vositasini qayta ishlashga yoki yo'q qilishga yuborish to'g'risida qaror qabul qilish bo'yicha mustaqillik</p> <p>9. Tayyorlangan dori vositasining sifatiga kafolat beruvchi shaxs sifatida rasmiy hujjatlarga imzo qo'yish va muhr bosish bo'yicha mustaqillik</p>
<p>B3.5- Farmatsevtik substansiyalar va texnologik jihozlar bilan ishlash</p>	<p>B3.01.5- Tarozi, o'lchov asboblari va sterilizatsiya uskunalari kalibrlash va ishchi holatda saqlash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Ish kunining boshida tarozilarni o'rnatish va ularning barqarorligini tekshirish</p> <p>2. Tarozilarni metrologik tekshiruvdan o'tgan toshlar to'plami yordamida kalibrlash</p> <p>3. O'lchov asboblari va byuretkalarning tozaligini hamda germetikligini nazorat qilish</p> <p>4. Sterilizatsiya uskunalari va distillyatorlarning ishlash rejimlarini test sinovdan o'tkazish</p> <p>5. Uskunalarining texnik holati va ishlatilishi bo'yicha ro'yxatga olish jurnallarini yuritish</p> <p>6. Nosozlik aniqlanganda uskuna faoliyatini to'xtatish va texnik xodimga xabar berish</p> <p>7. O'lchov asboblari chang va namlikdan himoyalangan holda saqlash</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Tarozilarni nol nuqtasiga keltirish va gorizontal holatda o'rnatish</p> <p>Nazorat toshlari yordamida tortish aniqligini tekshirish</p> <p>Avtoklav va quritish shkafining bosim hamda harorat parametrlarini sozlash</p> <p>Byuretkalarning va pipetkalarining kranlarini tozalash va moylash</p>

		Uskunalarining ishlashidagi nosozliklarni vizual va tovush orqali aniqlash
		Texnik jurnallarni va uskuna pasportlarini to'g'ri to'ldirish
O'lchov asboblari to'g'ri tozalash va konservatsiya qilish		
Bilimlar:		
Farmatsevtik tarozilarning turlari va ularning aniqlik sinflari		
O'lchov asboblari kalibrlash va metrologik tekshiruvdan o'tkazish qoidalar		
Sterilizatsiya uskunalarining ishlash prinsiplari va xavfsizlik texnikasi		
Distillyator va suv tozalash tizimlariga qo'yiladigan texnik talablar		
O'lchov asboblari xatolik darajalari va ularni aniqlash usullari		
Uskunalaridan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish yo'riqnomalari		
Mehnatni muhofaza qilish va elektr xavfsizligi qoidalar		
B3.02.5- Dori moddalari va yordamchi materiallarni fizik-kimyoviy xossalari ko'ra to'g'ri saqlash	Mehnat harakatlari:	
	Dori moddalarini fizik va kimyoviy xossalari ko'ra guruhlariga ajratib joylashtirish	
	Yorug'likka sezgir moddalarni to'q rangli shisha idishlarda yoki yorug'lik tushmaydigan shkaflarda saqlash	
	Uchuvchan va o'tkir hidli moddalarni germetik yopilgan idishlarda alohida saqlash	
	Zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalarni seyflarda yoki metall shkaflarda saqlash	
	Assistentlik xonasidagi shtanglarni o'z vaqtida to'ldirish va yorliqlarini yangilash	
	Dori moddalarining yaroqlilik muddatlarini muntazam monitoring qilish	
	Namlikka sezgir moddalarni quruq joyda va zich yopilgan idishlarda saqlash	
	Ko'nikmalar:	
	Dori moddalarini saqlash guruhlarini to'g'ri identifikatsiya qilish	
	Shtanglarni to'ldirishda moddalarning aralashib ketishini oldini olish	
	Zaharli moddalar saqlanadigan seyflar bilan ishlash va muhrlash	
	Termometr va gigrometr ko'rsatkichlariga qarab saqlash sharoitini baholash	
	Shtanglas yorliqlarida dori nomini va seriyasini aniq yozish	

		Yaroqlilik muddatini hisobga olgan holda "birinchi kirgan - birinchi chiqadi" tamoyilini qo'llash
		Buzilgan yoki sifati o'zgargan dori moddalarini vizual aniqlash
		Bilimlar:
		Dori moddalarining fizik-kimyoviy xossalari va saqlash shartlari
		Farmatsevtik nomutanosiblik va moddalarning o'zaro ta'siri
		Zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalarni saqlash bo'yicha davlat talablari
		Termolabil moddalarni sovutgichda saqlash harorat rejimlari
		Shtanglaslarni to'ldirish, yuvish va markirovkalash tartibi
		Yaroqlilik muddati o'tgan dori moddalarini aniqlash va yo'q qilish qoidalari
		Oksidlanuvchi va portlash xavfi bor moddalar bilan ishlash xavfsizligi
		Mas'uliyat va mustaqillik:
2. Zaharli va kuchli ta'sir etuvchi moddalarning saqlanishi va ruxsatsiz shaxslar qo'lga tushmasligi yuzasidan shaxsiy mas'uliyat		
3. Dori moddalarini noto'g'ri saqlash oqibatida ularning fizik-kimyoviy xossalari o'zgarishi va yaroqsiz holga kelishi uchun mas'uliyat		
4. Sterilizatsiya uskunalarning xavfsiz ishlashini nazorat qilish va bosim ostidagi idishlar bilan ishlash qoidalariga rioya etilishi bo'yicha mas'uliyat		
5. Yaroqlilik muddati o'tgan substansiyalardan dori tayyorlashda foydalanmaslik va ularni o'z vaqtida muomaladan chiqarish bo'yicha mas'uliyat		
6. Assistentlik xonasidagi dori zaxiralarini to'ldirish va moddalarni joylashtirish tartibini mustaqil belgilash bo'yicha mustaqillik		
7. Nosoz deb topilgan o'lchov asboblari va uskunalardan foydalanishni taqiqlash to'g'risida mustaqil qaror qabul qilish bo'yicha mustaqillik		
8. Dori moddalarining tashqi ko'rinishi va sifatiga shubha tug'ilganda ularni laboratoriya tahliliga yuborish bo'yicha mustaqillik		
9. Ish joyini ergonomik va xavfsiz tashkil etish bo'yicha o'z takliflarini kiritish va amalga oshirish bo'yicha mustaqillik		
Texnik va/yoki texnologik talab:		Elektron analitik tarozilar, turli o'lchamdagi qo'l tarozilari va toshlar to'plami, byuretkka tizimi, o'lchov silindrlari, menzurkalar va pipetkalar, chinni hovoncha va dastachalar, akvadistillyator, bug'li sterilizator, suv

	hammomi, infuzir apparati, filtrlash moslamalari va voronkalar, tibbiy muzlatgich, psixrometr yoki gigrometr, termometrlar, metall seyf yoki mustahkam shkaf, shtanglaslar to'plami, assistentlik stoli, aseptik blok
--	---

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 23-yanvar 2026-yildagi 1-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0083-son xulosa, 24.02.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 13.02.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	13.02.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot haqida ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash vazirligi

(tashkilot nomi)

Vazirning birinchi o'rinbosari

Boboyev Alisher Shukrullayevich

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar) to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi fan ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i	Ismailov O'ktam Safayevich
2.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti kafedra mudiri	Azimov Aziz Muxamedjanovich
3.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti kafedra mudiri	Kamilov Xaydar Pazilovich
4.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Yakubov Erkin Amongeldiyevich
5.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti assistenti	Nazarova Nigina Otabek qizi
6.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Atakov Sarvar Sultanbayevich
7.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Nuritdinova Nigora Batirovna
8.	Toshkent farmatsevtika instituti o'qituvchisi	Sultanova Rano Khakimovna
9.	Tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini rivojlantirish markazi dotsenti	Xaydarova Ravshankhon Turg'unovna
10.	Tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini rivojlantirish markazi dotsenti	Rakhimov Azamat Ulugovich



**SOGʻLIQNI SAQLASH VA FARMATSEVTIKA SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BOʻYICHA TARMOQ KENGASHI**

KASBIY STANDART
DORI VOSITALARI MUOMALASI VA ISHLAB
CHIQRISH MUTAXASSISLARI